

## HOMILADORLIKDA KECHADIGAN GIPERTONIYA KASALLIGI

### C

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Davolash ishi yo'nalishi 41.22  
guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Homiladorlik bilan bog'liq o'zgarishlar butun organizmga ta'sir qiladi. Yurak qon tomir tizimi ham bundan mustasno emas. Bu vaqtda qon bosimi bilan nima sodir bo'ladi va uni qanday nazorat qilish kerak? Mazkur maqolada homiladorlikda ro'y beradigan qon bosimining oshishi bilan bog'liq holatlar va ularga qarshi ayrim tavsiyalarni ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Qon aylanishi, yurak qisqarishlari, arterial bosim, homilador ayol, homiladorlik davri, nafas qisishi, yo'tal, arterial bosimning ko'tarilishi, tana vazni o'zgarishi, yurak porogi.*

Homiladorlik paytida, homila tufayli ona organizmiga, xususan, yurak qon tomir tizimiga yangi talablar qo'yiladi: ayolning tana vazni o'zgarishi, bachadon va yo'ldoshning o'sishi, homilaning kattalashishi sodir bo'ladi, qo'shimcha uteroplasentar qon aylanish doirasi qo'shiladi. Bu davrda qon tomirlarga ko'plab omillar o'z ta'sirini o'tkazadi, jumladan:

- Markaziy asab tizimining tonusi va gormonal fon o'zgarishlari;
- Qon aylanishi hajmining ko'payishi;
- Diafragma balandligining oshishi;
- Qorin bo'shlig'idagi bosimning oshishi.

Bundan tashqari, yurakning ko'krak qafasidagi joylashuvi biroz o'zgaradi va uning qisqarishlar soni oshadi. Organizmning barcha sa'y-harakatlari rivojlanayotgan homilani oziq moddalar va kislorod bilan ta'minlash uchun bachadon va yo'ldoshda qon aylanishini yaxshilashga qaratilgan. Shu sababli qon bosimidagi o'zgarishlar hayratlanarli holat emas. Homiladorlikning 28-dan 32-haftagasicha onaning yurak qon tomir tizimiga maksimal yuk tushadi, shuning uchun bu davrda yurak qon tomir tizimi kasalliklari bo'lgan homilador ayollarning umumiy ahvollari yomonlashishi mumkin. Yurak qon tomir tizimi tug'ruq jarayonini ta'minlash, ona-yo'ldosh-homila tizimida qon aylanishini yaxshilash, ona va homila ushbu davrni yengib o'tishi uchun barcha zaxiralarini safarbar etadi.

Jismoniy stress va og'riqlarga javoban yurak qisqarishlari soni ortadi va qon bosimi ko'tariladi. Bundan tashqari, u aorta va bachadon ortida joylashgan pastki g'ovak venaning siqilishi tufayli refleksli ravishda ko'tarilishi mumkin.



Agar bo'lajak ona gipotonik (qon bosimi past yuradigan) bo'lsa, I-II trimestrda qon bosimining yanada past ko'rsatkichlarga tushishini taxmin qilish mumkin. Holsizlik va uyquchanlik barcha homilador ayollarga xos bo'lsa-da, gipotonik ayollarda bu alomatlar aniqroq namoyon bo'ladi. Bu holatda shifokor tomonidan belgilangan suyuqlik ichish tartibiga rioya qilish, kuniga kamida 8 soat uxlash kerak. Bunda 22:00 dan kechikmasdan uyquga ketishga harakat qilish tavsiya etiladi. Chunki shu vaqtdan boshlab organizmni stressdan himoya qiladigan va metabolizmni normallashtiradigan gormonlar ishlab chiqarila boshlaydi.

Bundan tashqari, me'yorida ovqatlanish, toza havoda sayr qilish, homilador ayollar uchun mo'ljallangan mashqlar bajarish lozim. Ko'k yoki qora choy tetiklashishga yordam beradi. Agar arterial bosimning pastligi ona holatiga salbiy ta'sir o'tkazmasa, qo'shimcha dori vositalari qabul qilishning hojati yo'q. Ammo har holda, onalar bu davr davomida shifokor nazoratida bo'lishlari lozim.

Agar homilador ona gipertonik (qon bosimi yuqori yuradigan) bo'lsa, bu kasallik homiladorlikka va homilaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Gipertoniya bolaning ona qornida rivojlanishining sekinlashishiga, tug'ruq vaqtidagi asoratlarga yoki homila yetarlicha kislorod va oziq moddalari olmasligi sababli vazni kam bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin. Bunaqa vaziyatlarda dastlab stressning oldini olish, osh tuzi iste'molini cheklash kerak — u tanada suyuqlik ushlanib turishiga sabab bo'ladi va qon tomirlari tonusini oshiradi. Shuningdek, taomnomadan achchiq ovqatlar, achchiq choy va qahvani chiqarib tashlash tavsiya etiladi. Umuman olganda, qon bosimi baland bo'lsa, har kuni dori-darmonlar qabul qilib borish talab qilinadi. Biroq bunday dori vositalarining aksariyati homiladorlik davrida qarshi ko'rsatmaga egaligi sababli nafaqat homiladorlikning boshlanishi bilan, balki uni rejalashtirish bosqichida ham shifokor bilan preparatlarni bo'lajak bolaga zarar yetkazmaydigan turiga almashtirish imkoniyatini muhokama qilish kerak.

Yurak poroklari — yurak va undan boshlanadigan qon tomirlari tuzilishidagi patologik o'zgarishlar, nuqsonlar. Bu nuqsonlar yurak faoliyatini og'irlashtiradi va uning muskullarini toliqtiradi. Yurak poroklariga ko'pincha ilgari revmatizm bilan kasallanganlik sabab bo'ladi. Yuragida nuqsoni bor ayollarda homiladorlik hamisha ham ko'ngildagidek kechavermaydi. Odatda sog'lom yurak homiladorlik davridagi fiziologik og'irlikni yenga oladi, kasal yurakka esa yangi sharoit va talablar og'irlik qiladi. Yuragida kasali bo'lgan har bir homilador ayol kardiologik tekshiruvdan o'tishi, nazoratda bo'lishi va zarur bo'lgan barcha tadbirlar ko'rilishi uchun maxsus shifoxonaga yuboriladi. Homila-dor ayoldagi yurak porogi o'z vaqtida



aniqlanib, kasallikning holati, turi va asoratlari bor-yo'qligiga qarab maxsus davolar tayinlanadi.

Gipertoniya kasalligi — arterial qon bosimining doimiy oshishi bilan kechadigan surunkali kasallik. Bu kasallik homiladorlikning kechishiga juda jiddiy xavf soladi, ayniqsa homiladorlik o'rtasida ko'pincha kech rivojlanadigan toksikoz bilan gipertoniya kasalligi zo'rayib ketganda homilaning rivojlanishi-ga salbiy ta'sir etadi. Ana shunday noxushliklarning oldini olish uchun ruhiy-hayajonli hislarga berilmaslik, mehnat va dam olish tartibini to'g'ri uyushtirish, parhez (ovqat turi darmon dorilarga boy va xilma-xil bo'lishi, tuz, suyuqlik, hayvon yog'larini cheklash, yog'siz go'sht va baliqni faqat qaynatilgan holda iste'mol qilish)ga rioya qilish va tibbiy vositalarni vaqtida qo'llash talab etiladi. Gipertoniya kasalligi bo'lgan homiladorlar vaqt-vaqti bilan shifoxonada davolanadi, tug'ishga 2 hafta qolganda tug'ruqxonaga yotqiziladi.

Gipotoniya — arterial qon bosimining pasayishi. Bunda qon bosimi hamma vaqt pasaygan hodda bo'lmay, vaqt-vaqti bilan me'yoriga ko'tarilib ham turadi (masalan, uxlab turgandan, dam olgandan keyin, kunning birinchi yarmida yoki hayajonlanganda ko'tarilib ketadi), ammo keyin tezda tushadi. Bu holat ayollardagi gormonlar yetishmovchiligining belgisi deb hisoblanadi. Gipotoniya bilan kasallangan ayollarda homiladorlik asoratlari sog'lom ayollarga nisbatan ko'proq uchraydi, ilk toksikoz (ko'ngil aynash, qayd qilish, o'zini behol sezish, qon bosimining doimiy pasayishi) va kech rivojlanadigan toksikoz (shish, siydikda oqsil bo'lishi va boshqalar) ham bo'lishi mumkin. Gipotoniya ham homila o'z-o'zidan tushib qolish hollari kuzatiladi. Gipotoniya uchragan homiladorlar dispanser nazoratida turadilar va ularga tegishli davo kurslari belgilanadi. Ular o'ta toliqishdan o'zlarini asrashlari, ko'proq toza havoda bo'lishlari lozim. Ovqatlari kaloriyali, oqsilga, vitamininga (ayniqsa organizmni va yurak-qon tomirlari tonusini tabiiy quvvatlantiruvchi B va C vitaminlarga) boy bo'lishi zarur. Gipotoniyaning og'ir turlarida va asoratlari paydo bo'la boshlaganda shifoxonada davolanish, tug'ishga 2 hafta qolganda tug'ruqxonaga yotish lozim.

Xulosa qilib aytganda, homiladorlik paytida ona va homila uchun xavfli holat — preyeklampsiya yoki kech gestoz rivojlanishi mumkin. Uning belgilariga qon bosimi oshishi, shishlarning ko'pligi, peshob tarkibida oqsil bo'lishi kiradi. Preyeklampsiya alohida kasallik bo'lishi yoki ilgari mavjud bo'lgan gipertoniya fonida rivojlanishi mumkin. Shu sababli, bosimning oshishi bilan bog'liq har qanday alomatlar — bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'zlar oldida sarob naqshlari paydo bo'lishi, ko'z oldi qorong'ulashishi, quloqda shovqin paydo bo'lishi kabi belgilar kuzatilganda shifokorga murojaat qilish zarur.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukurov F.I., Nigmatova G.M. "AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA" Toshkent-2022
2. Nolas G. S., SHarp J., Goldsmid H. J. Thermoelectrics: Basic principles and new materials development. Berlin: Springer, 2001.
3. <https://med360.uz/homiladorlik/homiladorlikda-qon-bosimi-ozgarishi/>
4. Ahmadaliyeva G. H. et al. YARIMO 'TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 91-93.
5. Yusubjanovna A. M. BIRINCHI TIBBIY YORDAMNING AHAMIYATI VA UNI BAJARISHNING UMUMIY QOIDAIARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. №. 1.
6. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
7. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. BUYRAK TOSH KASALLIKLARINI HOSIL BO'LISHIDA GIPODINAMIYANING TA'SIRI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
8. Usmonov S., Alisherjonova F. INSON TANASIDA BO'LADIGAN ELEKTR HODISALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 200-203.
9. Usmonov S., Isroilov S. CHAQALOQLARDA QORIN DAM BO'LISHINING SABABLARI, DAVOLASH USULLARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 196-199.
10. Isroil o'g'li X. M., Abdusubxon o'g'li U. S. GIPERTONIYA KELIB CHIQISHI SABABLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.
11. Parpieva, O. R., & Djalalidinova, O. O. (2022). Reproductive Health Issues. Texas Journal of Medical Science, 14, 58-61.
12. Абдукаримова, Н. У., Муйдинова, Ё. Г., Парpieва, О. У., & Мухамедиева, И. Б. (2015). ОЦЕНКА РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН ГОРОДСКОЙ И СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. In Актуальные проблемы медицины в России и за рубежом (pp. 102-104).
13. Парpieва, О. Р., & Хайриллов, Х. И. (2023). ЗНАЧЕНИЕ УНИВЕРСАЛЬНОЙ ПРОГРЕССИВНОЙ МОДЕЛИ В РАБОТЕ С МАТЕРЯМИ И





ДЕТЬМИ В СИСТЕМЕ ПЕРВИЧНОГО ЗВЕНА. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 141-145.

14. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproktiv salomatlik. O'quv qo'llanma. Fergana, Uzbekistan.

15. Parpiyeva, O. R., & Dzhaldinova, O. O. (2022). The role of Valeology in raising a healthy generation. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 13, 1-3.

16. Абдукаримова, Н., Парпиева, О., & Муйдинова, Ё. (2020). Пандемия шароитидаги ҳомиладор аёллар ва чақалоқларга тиббиёт тавсияларининг аҳамияти. ACADEMIA SCIENCE™“UzACADEMIA” scientific-methodical journal. ISSN (E)-2181-1334, 31, 370-377.

